

G‘URBAT XO‘QANDIY G‘AZALLARIDAGI YETAKCHI MA‘NO VA MAZMUN

Askaraliyev Rasulxon Axatjon o‘g‘li,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-
bosqich magistranti*

Annotatsiya: Bugungi kunda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini chuqur o‘rganish hamda milliy adabiy merosimiz namoyandalarining ijodiy faoliyatini zamonaviy adabiyotshunoslik yondashuvlari asosida tadqiq etish bugungi kun adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Qo‘qon adabiy muhiti XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida adabiy jarayonning yirik markazlaridan biri sifatida shakllanib, ko‘plab iste‘dodli ijodkorlar yetishib chiqqan. Ana shunday ijodkorlardan biri esa G‘urbat Xo‘qandiy bo‘lib, uning adabiy merosi milliy ma‘naviyat, ma‘rifatparvarlik va badiiy-estetik tafakkur rivojida muhim o‘rin tutadi. Shoir ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik mahorati hamda Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni aytarli tadqiq etilmagan. Shu bois G‘urbat Xo‘qandiy asarlarini o‘rganish, uning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: G‘urbat Xo‘qandiy, Qo‘qon adabiy muhiti, Qo‘qon xonligi, ta‘lim, devon, g‘azal, muhammas, marsiya, ruboiy, chorbayt, adabiy meros, adabiyotshunoslik, tahlil, she‘riy san‘atlar, husni ta‘lil, talmeh, tamsil, tashxis, tanosub, ananaviy, bayt, misra, yondashuv, ijod, ijodiy ish, she‘r, ilmiy, qo‘yozma, bayoz, olimlar, millat, milliylik, ma‘rifatparvarlik, farzand, oshiq, mashuq, lirik qahramon, ilohiy ishq, yor, xulosa, poetika, Navoiy, an‘ana, “Devoni G‘urbat”, mazmun.

Kirish

Yurtboshimizning adabiyot ahliga qarata: “...Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta‘kidlash lozim.

Shu bilan bir qatorda, asrlar davomida komil inson tarbiyasi, adolatli jamiyat, shaxs erkinligi, Vatan ozodligi, bunyodkorlik, bag‘rikenglik va baynalmilalchilik, odamiylik kabi o‘lmas fazilatlarini tarannum etib kelayotgan mumtoz va zamonaviy



adabiyotimizning eng sara namunalarini xorijiy tillarga o‘g‘irish va chet ellarda targ‘ib etish bo‘yicha ham mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda” – degan so‘zlari ham ushbu ishni qilish uchun bizga turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda mumtoz adabiyotimizning o‘rganilmay qolayotgan qismini o‘rganish va keng ommaga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Xossatan, Qo‘qon adabiy muhitidagi bir qancha ijodkorlar shular jumlasidan. Shu ijodkorlardan biri esa G‘urbat Xo‘qandiy hisoblanadi. Shoir serqirra ijodkor bo‘lib uning ijodini o‘rganish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism

G‘urbat Xo‘qandiy ijodining asosiy qismini g‘azal janridagi she‘rlar egallaydi o‘n ming misraga yaqin adabiy me‘rosining 70 foizdan ortig‘ini aynan shu janr egallaydi. Devonidan 480 ga yaqin she‘rlar o‘rin egallagan bo‘lb bularning 442 tasi g‘azal janriga oid. Bu yuzdan shoirni “g‘azalnavis” deya atashimiz mumkin. Shoir ijodida tasavvufiy, ishqiy, xossatan, rindona, didaktik ruhdagi g‘azallarni ko‘rishimiz mumkin. G‘urbat ijodida muhabbat lirikasi katta o‘rin egallaydi. G‘azallari asosan ishqiy va tasavvufiy ko‘rinishga ega. Ba‘zi o‘rinlarda marsiya tarzida bitilganlarini ham uchratish mumkin. Unig g‘azal, muxammas, murabbalarida sevimli yorga bo‘lgan samimiy muhabbat, sadoqat, yorning iltifotsizligi, beparvoligidan shikoyat motivlari kuylanadi. Shoir ishq-muhabbatni ulug‘lab, oshiqning tortgan azob-uqubatlari, ichki kechinmalarini tarannum etadi. Shu bilan birgalikda mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan pand-nasihathidat ruhida bitilgan asarlar ham shoir sherlaridan joy olgan. Ayricha ko‘zga tashlanib turadigan yetakchi mavzu esa diniy-tasavvufiy mavzulardir. Shoir ilohiy ishqni tarannum etadi. Bunday mavzulardagi turli janrlarga oid yozg‘ichlari talaygina.

Abdurauf Fitrat shoirlilik haqida shunday yozgan edi: “...har birimizda jon va ongimizni tegramizdag‘i narsalar va hodisalardan chorlandurub tuig‘uchi “besh sezgich” (havvosi xamsa) bordir. Jonimiz shul besh sezgich orqali dunyoning o‘z tegramizga erishkan narsa va hodisalarni bilib turar va har birisidan qayg‘u, sevinch, qo‘rquv, qizish, qaynash kabi sezgi va tuyg‘ilar oladir. Qishning qorli sovuq bir kunida yirtiq choponli, ko‘k betli, oq soqolli bir tilanchi boboning o‘rnida yiqilib qolg‘anini ko‘rganda yuragimiz sezgisiz qolarmi? Shundayoq yop-yolg‘uz bu yo‘lda bir kishining yaralarig‘a o‘ralib, qonlarig‘a belangan o‘lukni qo‘yub qochar; biri o‘lukning boshig‘a tutub, uning bo‘yalib yotqon gavdasini ko‘rganda har kim o‘zig‘a yarasha bir narsa sezar: biri buyuk bir qo‘rquv bilan holig‘a yig‘lar; biri



chuqur qozib ko‘mar; biri esa ul yarali gavdani ko‘rgach, qoni qaynab ketar. Bu ishni qilg‘an vijdonsiz yirtqichlarni topub o‘ldirmak uchun har yon chopar. “She‘r” yurakimizda hosil bo‘lg‘an ana shunday sezgilarni hunarlicha so‘zlar bilan boshqalarning yuragiga o‘tkarmakdir”. G‘urbat ham ana shunday serqirra, har qanday vaziyatlarda ijod qiluvchi, xalq dardini kuylovchi ijodkor edi.

G‘urbat ishq-muhabbat mavzulariga ham ayricha munosabatda bo‘lgan. Albatta, she‘riyatni oshiq-mashuq munosabatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shoir sevimli yoriga murojaat etib, ishq haqida fikr yuritarkan, muhabbatsiz kishilarga bo‘lgan nafratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, lirik qahramon o‘z suyuqlisidan uzoqda umr kechirganligining ruhiy azoblari haqida quyidagi misralarni yozadi:

Muyassar qilmadi gardun menga vasli nigorimni,
Olib hijron g‘ami dildin tamomi ixtiyorimni
Agar menga muyassar bo‘lsa to vasli firoq ichra,
Qudumiga qilurmen sajda payki shahsuvorimni.

Oshiq yorining visoliga yetisholmay hijron azobida qiynaladi. Sabo orqali holahvolini yoriga bildiradi. G‘urbat she‘rda hijron kechinmalarini obrazli tilda ifodalar ekan, har bir fikriga mos o‘xshatishlar, badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanadi. U firoq o‘ti kuchini ko‘rsatmoqchi ekan, bu o‘t oshiqning butun jismiga tushib, kuydirib uni kul qilganini aytadi.

Shoir ijtimoiy hayot sinovlarini ham juda go‘zal ta‘riflagan. Turmushgadi zo‘ravon kishilarni, amaldorlar, ikkiyuzlamachi dindorlarni qattiq qoralagan. G‘urbat “baring” radifli she‘rida islom dini ihlosmandlariga o‘z munosabatini oshkor qiladi. Shunisi xarakterliki, bunda biror yakka shaxs emas, balki bir xil toifadagi kishilar, riyokorlar guruhi ustida gap boradi. Shoir firibgar, tovlamachi, halol va haramning farqiga bormaydigan, tamagir, quzg‘un ruhoniylarni ochiqdan-ochiq hajv ostiga oladi:

Och qolib ovqat topolmay bir nafaslik umr uchun,
Mulku dinga raxna solgan ahli imonsen baring.
Doimo xud murda go‘shdidin tanovullar qilib,
Zog‘u quzg‘unlarga o‘xshab shodu xandonsen baring.

G‘urbat qozilarni ularning fe‘l-atvoridan kelib chiqib, chayon-ilonlarga o‘xshatadi. Bu o‘rinda satirik shoir Maxmurning “Avsofi Qozi Muhammad Rajab Avj” hajvini ham eslatib o‘tsak maqsadga muvofiqdir. G‘urbat islom qonunlarining peshvosi bo‘lgan qozilarni ham qattiq tanqid ostiga oladi. O‘z hayot yo‘lida ham



shoir bunday riyokor kimsalar bilan doim ihtilofda bo‘lgan. Ularni ko‘zbo‘yamachilik va poraxo‘rlikda ayblaydi va xalqning boshiga bitgan balo sifatida tasvirlaydi:

Nasli insonmen demanglar, mahzi hayvonsen baring,

Makr bobida Azozil – moda shaytonsens baring.

Ulinglar rishva birlan qoziyi oxir zamon bo‘lmay,

Xaloyiqni chaqarga misli aqrab yo ilon bo‘lmay.

Shoir o‘zining ba’zi hajviy she’rlarini ana shu mavzuga bag‘ishladi. U yaramas kishilar, amaldorlar, boy tabaqa vakillarining fe’l-atvorini, ularning kirdikorlarini o‘tkir satira ostiga oladi. G‘urbatning hajv nayzasiga ilinganlardan biri Rustamboy degan bir boy shaxs edi. Rustamboy hamma narsadan yer, mol-mulk orttirishni afzal ko‘radi, atrofdagi qarzdor dehqonlarning yerlarini arzon-garov sotib olib, o‘z yeriga qo‘shadi. Talonchi Rustam yana o‘z qurbonlarini haqorat ham qiladi. G‘urbat ham dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi bois uning kirdikorlarini yaxshi bilgan va u haqida shunday yozadi:

Rustamu boyman semiz ittek talashda yer uchun,

Sarf etib dunyolarini ori yo‘q ahmoqlar.

Xulosa

G‘urbat g‘azallarida ham diniy-tasavvufiy, ijtimoiy, maishiy, satirik, sayohat xotiralari, ishq tarannumi kabi turli mavzular qalamga olinadi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz singari shoir lirikasining poetik ko‘lami anchagina keng. Uning asarlaridan o‘sha davr ijtimoiy hayoti haqida ma’lumotlar olish mumkin. Shoir xalq dardini o‘z dardi deb bilgan. Hatto hukmron tabaqa vakillarini hadeb tanqid qilavergani uchun tazyiqqa ham uchragan. Ushbu g‘azallar orqali shoirning o‘zi ham anchagina og‘ir ahvolda yashaganini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham shoir oddiy xalq dardini yana-da chuqurroq his qilgan. Aslida ham u oddiy xalqning ajralmas bir bo‘lagi edi. Yetishmovchiliklar sabab och qolgan vaqtlari ham ko‘p bo‘lgan, ammo ikkiyuzlamachi amaldor tabaqa vakillarining ehsonlaridan doimo voz kechib kelgan. Shu orqali ham oddiy xalqqa o‘rnak bo‘la olgan.

G‘urbat Xo‘qandiy g‘azallari xalqonaligi, o‘qilishining yengilligi, tining soddaligi, shuningdek, asosan turkiy kalimalardan keng foydalanilganligi bilan ham o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortadi. G‘azallarida o‘ziga xos xalqona ruh mavjud.

Shoir lirikasini o‘rganish, uni bugungi kunga tatbiq etish zarur. G‘urbat ham o‘z davrining yetuk shoirlaridan bo‘lgan. Muqumiy va Furqat adabiy maktablarining



faol a'zolaridan hisoblangan. Barcha ijodkorlar singari xalqning ozod, erkin, xurfikrli bo'lishini xohlab ijod qilgan. She'rlarida ham agar zamona shunday bo'lmaganida oddiy xalq bunchalik aziyat chekib yashamasligini ta'kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – 214 б.
2. Қосимов. Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 296 б.
3. Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида. – Тошкент: Фан, 1971. – 235 б.
4. 4. Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – 451 б.
5. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – 345 б.
6. Ш. Воҳидов. Қўқон хонлиги тарихи(хонлик тарихи манбаларда). – 356 б.



Research Science and Innovation House

